O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND SHAHAR HOKIMINING QARORI

2023 - yil 13 - oktabr 471-7-107-Q/23 Samarqand shahar hokimligi

Samarqand viloyati hokimining 2023-yil 21-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-300-son qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi 259-7-0-Q/23-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoniga muvofiq tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirishni ta’minlash maqsadida:

QAROR QILAMAN:

1. Samarqand viloyati hokimining 2023-yil 21-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-300-son qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi 259-7-0-Q/23-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish;

barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash;

suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;

qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;

“xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.

3. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha:

2023-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi 1-ilovaga;

2023-2024-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib shahar hokimining barcha o‘rinbosarlari, maslahatchilari, bo‘lim va guruh rahbarlari, shahar korxona va tashkilot rahbarlari belgilansin.

5. Qaror ijrosini muntazam ravishda muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha shahar hokimi o‘rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

6. Shahar hokimligi axborot xizmati (A.Po‘latov), “Samarqand” gazetasi tahririyati (X.Jo‘raev) ga ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda:

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish natijalarining ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng sharhlab borilishini hamda uning mazmun-mohiyati jamoatchilikka tushuntirilishini;

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarning ijrosi va natijalari to‘g‘risidagi xolis va to‘liq ma’lumot aholiga tezlik bilan yetkazilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Samarqand shahar hokimi **F.Umarov**

Samarqand shahar hokimining
2023-yil 13-oktabrdagi
471-7-107-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Samarqand shahrida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar

REJASI

T/r	Yo‘nalish, maqsad va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
1. **HAR BIR INSONGA O‘Z SALOHIYATINI RO‘YOBGA CHIQARISH UCHUN MUNOSIB SHAROITLAR YARATISH**					
1.1. Ta’lim tizimi islohotlari					
5-maqsad: Umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish					
1.	**8-band:** Nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish.	Har yili nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun kamida respublika bo‘yicha 2,5 gektar yer uchastkalarini auksionga chiqarish.	2023-yil oktabrdan boshlab		Shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jalik bo‘limi (Sh.Djumaev), Kadastrlar palatasi shahar filiali (X.Abjalov)
15-maqsad: Bolalar o‘rtasidagi irsiy kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish					

T/r	Yo‘nalish, maqsad va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
2.	**21-band:** Erta va qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning oldini olish, tug‘ishlar o‘rtasidagi maqbul oraliqqa rioya qilish, irsiy kasalliklar profilaktikasi dolzarbligini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish.	**1.** FXDYO organlarida “Yosh kelin-kuyovlar maktabi” faoliyatini olib borish va ularning maxsus kurslardan to‘liq o‘tishini ta’minlash. **2.** Maktablarda, mahalla va oilalarda o‘smir yigitlar va ularning otalari, shuningdek, voyaga yetmagan qizlar va ularning onalari bilan qarindoshlar orasidagi hamda erta nikoh va homiladorlikning salbiy oqibatlari bo‘yicha alohida davra suhbatlari o‘tkazish. 3. Maqbul oraliqqa rioya qilmagan holda tug‘ishlarning ona va bola organizmiga salbiy oqibatlari, tug‘ishlar orasidagi maqbul oraliqda rioya qilishning afzalliklari va zamonaviy choralari to‘g‘risida oilalarda yosh kelinchak va uning oila a’zolari bilan birgalikda individual suhbatlar o‘tkazish.	2023-yil dekabr	Ijrochilar mablag‘lari	shahar hokimining o‘rinbosari (Z.Saidova), Shahar Tibbiyot birlashmasi (A.Babajanov), shahar Adliya bo‘limi (N.Kamilov), shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Q.Saidov)
1.3. Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha islohotlar					
25-maqsad. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta’minlash					
3.	**40-band:** Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar uchun ijtimoiy-huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatish xizmatini kengaytirish.	**1.** Xotin-qizlar muammolari bilan ishlash tizimini raqamlashtirish, shu jumladan, xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va ularni tizimli ravishda hal etish modulini yaratish yuzasidan taklif ishlab chiqib, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga kiritish. 2. “Ayollar daftari” doirasida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj xotin-qizlar bilan manzilli ishlash tizimini yanada takomillashtirish choralarini ko‘rish. **3.** Aliment to‘lash va undirish amaliyoti hamda xorijiy tajribani inobatga olgan holda aliment to‘lash tizimi samaradorligini oshirish, shu jumladan, aliment majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarayotgan shaxslarni rag‘batlantirish chorasini ko‘rish bo‘yicha takliflar ishlab chiqib, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga kiritish.	2023-yil oktyabr 2023-yil dekabr 2023-yil dekabr	Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan *(Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-son qarori)*	Shahar hokimining o‘rinbosari (Z.Saidova), shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (J.Qodirov)

T/r	Yo‘nalish, maqsad va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
26-maqsad: Nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash					
4.	**45-band:** Nuroniylarga tizimli ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlari uchun zarur sharoitlarni yaratib borish, “**Nuroniylar maskani**” majmualarida va mahallalarda turli madaniy-ma’rifiy va sport tadbirlari o‘tkazish.	Shahardagi “Nuroniylar maskani” majmualari va mahallalarga ta’lim va madaniyat muassasalarini biriktirish hamda ularda madaniy-ma’rifiy va sport tadbirlarini o‘tkazish. Tadbirlarga nuroniylar va yoshlarni jalb etish.	2023-yil sentabr	Hisob-kitoblarga asosan mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan	Nuroniy jamg‘armasi shahar bo‘limi
5.	**46-band:** Yoshlar tarbiyasida nuroniylarning o‘rnini yanada oshirish maqsadida **“Uch avlod uchrashuvlari”**, **“Otalar jasorati – ibrat namunasi”**, **“O‘nta yoshga – bir nuroniy”** harakati kabi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yanada kengaytirish va manzilli tashkil etish.	**1.** El-yurt hurmatiga sazovor bo‘lgan, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shgan taniqli keksa avlod, o‘rta avlod vakillari hamda yoshlar bilan **“Uch avlod uchrashuvi”**, **“Otalar jasorati – ibrat namunasi”** tadbirlarini o‘tkazish. O‘zbekiston Qahramonlari, “El-yurt hurmati” ordeni va boshqa davlat mukofotlari sohiblari, atoqli yozuvchilar, shoirlar, taniqli san’atkor, olim va ziyolilar, hududdagi faollar, mashhur sportchilar, hunarmandlar, fermerlar, yirik korxonalar rahbarlarini jalb etish. **2. “O‘nta yoshga – bir nuroniy”** harakati doirasida har bir mahallada ishsiz, tarbiyasi og‘ir, muammoli yoshlardan o‘n nafarini bir faol nuroniyga biriktirish.	2023-yil sentyabr-dekabr	Hisob-kitoblarga asosan mahalliy budjet mablag‘lari	Nuroniy jamg‘armasi shahar bo‘limi, shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (J.Qodirov)
29-maqsad: Fuqarolarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish					

T/r	Yo‘nalish, maqsad va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
6.	**50-band:** Band bo‘lmagan shaxslar, kambag‘al oilalarning ishsiz a’zolari va yoshlarni davlat hisobidan amaliy monomarkaz, davlat va nodavlat ta’lim muassasalarida kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish orqali ularning bandligiga ko‘maklashish ko‘lamini **ikki barobar** oshirish.	**1.** Korxona va tashkilotlar buyurtmalari, shuningdek, mehnat bozori holatidan kelib chiqib kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitishni tashkil etish. **2.** Joriy yil ikkinchi yarim yilligida **0,8 ming nafar** ishsizlarni o‘qishga jalb etish.	2023-yil dekabr	Hisob-kitoblarga asosan	shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (J.Qodirov)
1.4. Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo‘nalishlaridagi islohotlar					
32-maqsad: Yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish					
7.	**53-band:**Yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish.	**1. “Yoshlar balansi”**ni takomillashtirish orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj, hayotda o‘z o‘rnini topishga qiynalayotgan yoshlarni muntazam ravishda aniqlab borish, ularning kasbiy ko‘nikmalari va qiziqishlari bo‘yicha ma’lumotlarni shakllantirish. **2. “Yoshlar daftari”** jamg‘armalari mablag‘ining kamida **40 foizini** yoshlarni kasb-hunarga o‘qitishga yo‘naltirish, **“Yoshlar daftari”** tizimi orqali yoshlarga ko‘rsatiladigan ijtimoiy-iqtisodiy xizmat turlarini kengaytirish. **3. “Yoshlar daftari”** orqali ko‘rsatiladigan ijtimoiy-iqtisodiy xizmatlar, jumladan, yoshlarga subsidiya, kompensatsiya va moddiy yordam berish tartibini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2023-yil dekabr	–	Shahar Yoshlar ishlari bo‘limi (X.Meliev)
33-maqsad: Yoshlar o‘rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish					

T/r	Yo‘nalish, maqsad va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
8.	**54-band:** Yoshlarga zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish, ularning yuqori daromadli sohalarda bemalol ishlay olishlari uchun sharoit yaratish.	**“Bir million dasturchi”** loyihasini kengaytirish orqali eng iqtidorli yoshlarni tanlab olib, xalqaro nufuzli kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida **xalqaro IT bozori**ga tayyorlash.	2023-yil dekabr	Ushbu dasturlar uchun Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida *(Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-son qarori)*	Shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Q.Saidov), Shahar Yoshlar ishlari bo‘limi (X.Meliev)
34-maqsad: Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish					

T/r	Yo‘nalish, maqsad va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
9.	**55-band:** Sport bilan shug‘ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish.	**1. “Besh tashabbus olimpiadasi”** doirasida mahallalarda istiqomat qiluvchi yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladigan ommaviy sport musobaqalaridagi sport turlari geografiyasini kengaytirish va tanlovlar sifatini oshirish. **2.** Maktabgacha, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchi va o‘quvchilari, professional ta’lim va oliy ta’lim muassasalari talabalarini ommaviy sport turlariga bosqichma-bosqich keng jalb qilish maqsadida targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish. **3.** Aholining keng qatlamalari, jumladan, uyushmagan yoshlarni sportga qiziqtirish hamda ularning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish doirasida yurish va yugurish kabi musobaqalarni tashkil etib borish. **4.** Aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish orqali ularning jismoniy qobiliyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish. **5.** Shahardagi chekka mahallalarda sport infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan, universal sport maydonchalarini bosqichma-bosqich barpo etish hamda bu orqali aholining sport bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish. **6.** Aholining yosh toifalari bo‘yicha viloyatning barcha hududlarida har yili jismoniy tayyorgarlik sinovlarini o‘tkazish hamda mazkur tadbirlarga fuqarolarni jalb qilish. **7.** Milliy qadriyatlarimizni tiklash, yosh avlodga yetkazish maqsadida har yili **“Milliy sport turlari va xalq o‘yinlari”** kabi etnofestivallarni o‘tkazish orqali ushbu tadbirlarga yoshlarni jalb qilish. **8.** Sport bilan shug‘ullanadigan yoshlar qamrovini bog‘cha yoshidan boshlab kengaytirish choralarini ko‘rish.	2023-yil dekabr	–	Shahar Yoshlar ishlari bo‘limi (X.Meliev), shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Q.Saidov)

T/r	Yo‘nalish, maqsad va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
1.5. Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar					
43-maqsad: Madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash, tasviriy va amaliy san’at yo‘nalishlarini rivojlantirish.					
10.	**69-band:**O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlari ko‘lamini kengaytirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash.	**1.** Xalq og‘zaki ijodi durdonalari bo‘lgan dostonlarni targ‘ib etib kelayotgan **baxshilar ijodini qo‘llab-quvvatlash**ga doir chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash. **2.** Hududlarning o‘ziga xos bo‘lgan urf-odat va marosimlarini qayta tiklash maqsadida **folklor ekspeditsiyalar**ini tashkil etish va ilmiy jihatdan o‘rganish.	2023-yil dekabr 2024-yildan boshlab reja asosida	Hisob-kitoblar asosida Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida *(Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-son qarori)*	Shahar Madaniyat va turizm bo‘limi (R.Maxmudova)
II. BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASH					
45-maqsad: 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirib, “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish.					
11.	**2-band:** Tovarlar va xizmatlar bozori muvozanatini ta’minlash orqali yillik inflyatsiya darajasining **2024-yil**dan boshlab **8-9 foiz**dan oshmasligini ta’minlash.	**2024-yilda** inflyatsiyaning target ko‘rsatkichiga erishish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. Bunda: asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hosildorlikni oshirish; xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bozori prognozlarini inobatga olish; ichki bozorni asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashning manzilli choralarini ko‘rib borish.	2023-yil dekabr	–	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullaev), shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Mamadaliev) shahar Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi (Z.Muhammadqulov)
53-maqsad: O‘zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish					
12.	**24-band:** Shahar va tumanlarni jamoat transporti bilan to‘liq qamrab olish.	**1.** Shahar va tumanlar **2030-yilga qadar** jamoat transporti uchun avtobuslar sonini **400 taga** va elektrobuslar sonini **80 taga** yetkazish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. **2.** Avtobus qatnovi yo‘nalishi bo‘yicha to‘xtash bekatlari shart-sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha takliflarni kiritish.	2023-yil noyabr	–	Shahar hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi (Y.Bobonazarov), shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Mamadaliev)

T/r	Yo‘nalish, maqsad va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
58-maqsad: O‘zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish					
13.	**47-band:**Hududlarda **“Inklyuziv-to‘siqsiz turizm”** rivojlanishi uchun sharoitlarni yaratish.	**“Inklyuziv-to‘siqsiz turizm”**ni tashkil qilish, shahardan yiliga **200 nafar**dan nogironligi bo‘lgan shaxslarning Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlariga bepul sayohatlarini tashkil qilish dasturi yuzasidan taklif ishlab chiqib, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga kiritish.	2023-yil dekabr	–	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi shahar bo‘limi (F.G‘aniev)
59-maqsad: Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish					
14.	**49-band:** O‘rta va yirik shaharlar hamda aholisi **300 mingdan** ko‘p bo‘lgan tumanlarda zamonaviy xizmatlarni rivojlantirish.	Xizmat ko‘rsatish sohasida 2023-yil yakuniga qadar **150 ta savdo servis obyektlarini tashkil etish** choralarini ko‘rish. Bunda: amalga oshiriladigan loyihalarning manzilli ro‘yxatini shakllantirish; zarur yer va bino-inshootlarni auksion savdolarga chiqarib borish; tijorat banklari tomonidan kredit mablag‘lari ajratilishiga ko‘maklashish; hokim yordamchilari tomonidan mavjud moliyaviy resurslar doirasida imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratish orqali o‘zini o‘zi band qilish.	2023-yil dekabr	–	shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullaev), shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Mamadaliev)
15.	**50-band:** Hududlarda savdo, maishiy, sayilgoh va ko‘ngilochar xizmatlarni rivojlantirish va **2030-yil**gacha aholi gavjum bo‘lgan ko‘chalarning **36 mingta** bo‘sh yer maydonlarini auksion savdolariga chiqarish.	Yangi xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish uchun **2023-yil yakuniga qadar 28 ta** yer (lot) maydonlarni auksion savdolarga chiqarish. Bunda: infratuzilmasi mavjud va aholi gavjum bo‘lgan hududlarda bo‘sh yer maydonlarini aniqlash; aniqlangan yer maydonlarini belgilangan tartibda auksionga chiqarish; auksionga chiqarilgan yer maydonlari to‘g‘risida hokim yordamchilari tomonidan, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot ishlarini jadallashtirish orqali sotish.	2023-yil dekabr	–	shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullaev) shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Mamadaliev), Kadastr palatasi shahar bo‘limi (X.Abjalov)

T/r	Yo‘nalish, maqsad va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
16.	**51-band:**O‘rta va yirik shahar markazlarida xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan markaziy ko‘chalarni tashkil etish va **2030-yil**gacha **2,8 mingta** savdo va servis obyektlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish.	Shahar markazida tanlab olingan **2 ta** markaziy ko‘chalarni maxsus xizmat ko‘rsatish ko‘chasiga aylantirish orqali **44 ta** savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil qilish. Bunda: infratuzilmasi mavjud va aholi gavjum bo‘lgan hududlarda bo‘sh yer maydonlarini auksion savdolariga chiqarish; shakllantirilgan loyihalarga kredit mablag‘lari ajratilishiga ko‘maklashish; ko‘ngilochar ko‘chalarda aholining ma’naviy va madaniy hordiq olishlari uchun har xil ko‘ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish.	2023-yil dekabr	–	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullaev) shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (Sh.Djumaev), shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Mamadaliev)
17.	**52-band: “Yangi O‘zbekiston”** massivlarida va xalqaro avtomobil yo‘llari bo‘yida savdo va servis obyektlarini tashkil etish.	Xalqaro avtomobil yo‘llari bo‘yida **44 ta** savdo va servis obyektlarini tashkil etish bo‘yicha dasturni ishlab chiqish.	2023-yil oktyabr	–	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullaev), shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (Sh.Djumaev), shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Mamadaliev)
18.	**53-band:** Zamonaviy, qulay, barcha xavfsizlik talablariga javob beradigan savdo komplekslarini tashkil etish.	Yetakchi loyiha tashkilotlarini jalb qilib, bozorlarni zamonaviy, qulay, barcha xavfsizlik talablariga javob beradigan savdo komplekslariga aylantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar dasturiga taklif kiritish.	2023-yil oktyabr	–	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullaev), shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (Sh.Djumaev), shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Mamadaliev)
60-maqsad. Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta’minlash darajasini oshirish					

T/r	Yo‘nalish, maqsad va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
19.	**54-band:**Ichimlik va oqova suvi infratuzilmasini qurishda xususiy sektorni jalb etish**.**	Ichimlik va oqova suvi infratuzilmasini qurishda xususiy sektorni jalb etish mexanizmlarini joriy etish yuzasidan takliflar ishlab chiqib, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligiga taqdim etish.	2023-yil oktabr	–	Shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (Sh.Djumaev), shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Mamadaliev)
III. SUV RESURSLARINI TEJASH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH					
3.1. Suv resurslarini tejash bo‘yicha islohotlar					
62-maqsad: Respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish					
20.	**4-band:** Xizmat ko‘rsatish sohasida suvni tejovchi va qayta ishlovchi texnologiyalarni joriy etish.	Xizmat ko‘rsatish sohasida, ayniqsa gilam va avtomobillar yuvish shoxobchalari faoliyatini qonuniy tartibga solish, ularda suvni tejovchi va qayta ishlovchi texnologiyalarni (sirkulyar) joriy etish talabini qonunan mustahkamlab qo‘yish bo‘yicha aniq takliflarni ishlab chiqib, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga kiritish.	2023-yil sentabr	–	Samarqand suv ta’minot MChJ shahar filiali (J.Zugurov), Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi shahar bo‘limi (F.G‘aniev)
66-maqsad: Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta’sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish					
21.	**10-band:** Shahar va tuman markazlarida har **50 – 100 ming** aholi uchun **“jamoat parklari”**ni tashkil etish.	Hududlarda zamonaviy standartlarga javob beradigan “**yashil jamoat parklari”ni** barpo etish uchun yer maydonlarini belgilash va ularni o‘rnatilgan tartibda ajratish bo‘yicha choralar ko‘rish.	2023-yil sentabr	Hisob-kitoblarga ko‘ra ijrochilar mablag‘lari mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari, homiylik va grant mablag‘lari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi shahar bo‘limi (F.G‘aniev)
3.2. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha islohotlar					
67-maqsad: Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish					

T/r	Yo‘nalish, maqsad va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
22.	**11-band: “Yashil makon”** umummilliy loyihasi doirasida har yili kamida **0,6 million tup** manzarali va mevali daraxtlar hamda butalar ko‘chatlari va qalamchalarini ekish.	**1.** Ko‘kalamzorlashtiriladigan maydonlarni aniqlash, har bir hududning tabiiy tuproq-iqlim sharoitiga mos ko‘chat va qalamchalarni tanlash, ekish va parvarishlash bo‘yicha choralar, moliyalashtirish manbalari va mas’ullarni belgilash. **2.** Ko‘kalamzorlashtirish va ko‘chat ekish tadbirlari doirasida har yili **bahorda** **0,3 million** tup va **kuzda 0,3 million** tup manzarali, mevali daraxtlar va butalar ko‘chatlari hamda qalamchalarini ekish. **3.** Ko‘kalamzorlashtiriladigan maydonlarda, shuningdek, ijtimoiy soha obyektlarida ko‘chatlarni ekish, sug‘orish tizimlarini o‘rnatish.	2023-yil sentyabr	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga ajratilgan mablag‘lar. *(Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-son qarori)* Mahalliy budjet mablag‘lari, homiylik va grant mablag‘lari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi shahar bo‘limi (F.G‘aniev)
23.	**12-band:** Barcha shaharlarni to‘liq **“yashil belbog‘”**lar bilan qamrab olish.	**1.** Ajratilgan yer maydonlari bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish. **2.** Tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari asosida tuproq va iqlim sharoitiga mos daraxt turlaridan **“yashil belbog‘”**larni barpo etish. **3. “Yashil belbog‘”**larni doimiy ravishda qo‘riqlash va parvarish qilish ishlarini tashkil etish.	2023-yil oktabr oyidan boshlab dastur asosida	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga ajratilgan mablag‘lar. *(Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-son qarori)* Mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari, homiylik va grant mablag‘lari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi shahar bo‘limi (F.G‘aniev)
IV. QONUN USTUVORLIGINI TA’MINLASH, XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH					
4.1. Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar					
75-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam “ovoziga” aylantirish					

T/r	Yo‘nalish, maqsad va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
24.	**6-band:** Mahalliy Kengashlarning Oliy Majlis Senati bilan birgalikda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ijrosi ustidan ta’sirchan nazoratni yo‘lga qo‘yish hamda mavjud muammolarni hal etish borasidagi faoliyat samaradorligini oshirish.	**1.** Oliy Majlis Senati qo‘mitalarining mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalari bilan hamkorlikda sayyor majlislar o‘tkazishini yo‘lga qo‘yish. *(Oliy Majlis Senati ish rejasiga asosan)* **2.** Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining o‘rganilishini hamda sayyor majlislarda muhokama qilinishini tashkil etish. **3.** Hududlardagi mavjud muammolarni hal etish bo‘yicha amaliy choralar ijrosini ta’minlash.	2023-yil sentabr–dekabr	–	Xalq deputatlari shahar kengashi kotibiyati (F.Ochilov)
V. “XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT” TAMOYILIGA ASOSLANGAN SIYOSATNI IZCHIL DAVOM ETTIRISH					
5.2. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo‘yicha islohotlar					
98-maqsad: Favqulodda vaziyatlar va global iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq aholi hayotiga xavf soluvchi ofatlarning oldini olish					

T/r	Yo‘nalish, maqsad va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
25.	**20-band: Senday hadli dasturi** asosida 2030-yilgacha tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish bo‘yicha xususan, istiqbolda ekstremal ob-havo hodisalari – erta bahorda tog‘ ko‘llari toshishi, suv toshqini, sel, ko‘chki, shuningdek, yozgi vegetatsiya davrida qurg‘oqchilik, o‘rmon yong‘ini, chang-tuz bo‘ronlarining oldini olish.	**1.** Toshqinga qarshi Hukumat komissiyasi a’zolari bilan birgalikda mavsumdan oldin xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlar xavfi mavjud hududlarni joyiga chiqqan holda o‘rganib borish, o‘rganish natijalari yuzasidan tabiiy ofatlardan aholini va hududlarni himoya qilish bo‘yicha muhandislik-muhofaza va profilaktik tadbirlarni o‘tkazish. **2.** Toshqin suvlari va sel oqimlaridan aholini va hududlarni muhofaza qilish bo‘yicha daryo va soylarning o‘zanlarini tozalash va qirg‘oqlarini mustahkamlash ishlarini tashkil etish. **3.** Vakolatli davlat organlari xodimlarining tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va ularning salohiyatini oshirish maqsadida tizimli ravishda o‘quv kurslari, seminar va treninglarni tashkil etish. **4.** Hududlarda barqaror ekologik vaziyatni saqlash va ekologik fojialarning oldini olishga qaratilgan idoraviy dastur loyihasiga taklif ishlab chiqib, Favqulodda vaziyatlar vazirligiga kiritish.	2023-yildan boshlab 2023-yil dekabr	Respublika budjeti va mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan *(Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-son qarori)*	Shahar Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (Sh.Fayzullaev), Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi shahar bo‘limi (F.G‘aniev)

Samarqand shahar hokimining
2023-yil 13-oktabrdagi
471-7-107-Q/23-son qaroriga
2-ilova

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan

MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR

T/r	Maqsadli ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	2023	2024
I. HAR BIR INSONGA O‘Z SALOHIYATINI RO‘YOBGA CHIQARISH UCHUN MUNOSIB SHAROITLAR YARATISH				
1.1. Ta’lim tizimi islohotlari				
5-maqsad: Umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish				
1.	Nodavlat umumiy o‘rta ta’lim **tashkilotlari soni.**	dona	**2**	**3**
15-maqsad: Bolalar o‘rtasidagi irsiy kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish				
2.	**Irsiy kasalliklar** bilan kasallangan bolalarni dori vositalari, tibbiy buyumlar va shifobaxsh ozuqalar bilan to‘liq ta’minlash.	foiz	**90**	**100**
3.	**Bolalarda irsiy kasalliklar** bo‘yicha selektiv skrining tekshiruvlar turlarini oshirish.	ta	**1**	**2**
1.3. Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha islohotlar				
25-maqsad. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta’minlash				
4.	Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan turarjoyga muhtoj **xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minlash.**	ta	**8**	**25**
5.	Davlat tomonidan ehtiyojmand xotin-qizlarga **maxsus jarrohlik amaliyotini o‘tkazish.**	ta	**15**	**26**
6.	**Boshqaruv lavozimlaridagi** xotin-qizlar ulushini oshirish.	foiz	**29,6**	**30,2**
7.	Oliy ta’limdagi **talabalar orasida xotin-qizlar ulushini** oshirish.	foiz	**49,2**	**50,1**
8.	Xotin-qizlarning **axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan** faol foydalanishini oshirish.	ta	**1368**	**1582**
26-maqsad: Nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash				
9.	Nuroniylar uchun respublika bo‘ylab diqqatga sazovor joylar, xususan **tarixiy shaharlar, qadimiy obidalar, ziyoratgohlar va yurtimizning so‘lim go‘shalariga** sayohatlar tashkil etish.	ming nafar	**8**	**11**
29-maqsad: Har bir fuqaroni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish				
10.	Ish bilan band bo‘lmagan fuqarolarni **kasb-hunar, tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillarga** o‘qitish.	ming nafar	**1,3**	**1,8**
11.	Xalqaro standartlar asosida kasbga o‘qitish markazlari o‘qituvchilarining **malakasini oshirish**.	nafar	**25**	**50**
12.	Kasb-hunarga o‘qitishda **xususiy sektor va “usta-shogird” maktablari** ulushini oshirish.	foiz	**15**	**20**
1.4. Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo‘nalishlaridagi islohotlar				
32-maqsad: Yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish				
13.	Yoshlarning **bandligini ta’minlash**.	ming nafar	**2,6**	**3,4**
14.	Yoshlarning **ishsizlik darajasini** kamaytirish.	foiz	**13,8**	**13,5**
33-maqsad: Yoshlar o‘rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish				
15.	**IT sohasida** yoshlarni ish bilan ta’minlash, maktab o‘quvchilarini **xalqaro IT bozorida** talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘rgatish.	ming nafar	**1,1**	**2,3**
34-maqsad: Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish				
16.	Yoshlarni **ommaviy sport tadbirlariga** jalb qilish.	ming nafar	**0,4**	**0,7**
17.	**Sport bilan shug‘ullanishga** jalb qilingan aholi ulushi.	foiz	**26**	**28**
18.	Mahallalarda **ko‘p funksiyali sport maydonchalarini** barpo etish.	ta	**26**	**22**
1.5. Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar				
43-maqsad: Madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash, tasviriy va amaliy san’at yo‘nalishlarini rivojlantirish.				
19.	Samarqand shahrida **ijodkorlarning doimiy ko‘rgazmalari**ni tashkil qilish.	ta	–	**20**
20.	Madaniyat va san’at muassasalarini **davlat-xususiy sheriklik asosida** tashkil etish.	dona	**-**	**1**
II. BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASH				
45-maqsad: 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish				
21.	Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o‘rtacha **7-10 foiz** atrofida o‘sishini ta’minlash.	foiz	**5,9**	**6,1**
53-maqsad: O‘zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish				
22.	Shahar hududi orqali tranzit yuklarini tashish hajmini **2,5 million tonnaga** yetkazish.	ming tonna	**120**	**130**
23.	Yo‘lovchi va yuk tashish xizmatlari hajmini **3 barobar** oshirish.	foiz	**111**	**112**
24.	Aviaqatnovlar sonini **4 barobarga** oshirish.	barobar	**1,1**	**1,4**
58-maqsad: O‘zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish				
25.	Xorijiy turistlar sonini **3 millionga** yetkazish.	million nafar	**2,1**	**2,5**
26.	Ichki sayyohlar sonini **7 millionga** yetkazish.	million nafar	**3**	**3,5**
27.	Turizm xizmatlari eksportini **200 million dollarga** yetkazish.	milliard dollar	**0,2**	**0,3**
28.	Ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini **1,5 million nafarga** oshirish.	million nafar	**0,5**	**0,7**
29.	“Mehmonxona – transport – tur-operator – savdo va servis” korxonalari kooperatsiya asosida faoliyat yuritadigan **2 ta** yirik turizm klaster (majmua)larini tashkil etish.	ta	**0**	**1**
30.	Tibbiyot va ta’lim turizmi eksportini yiliga **150,0 mln. dollarga** yetkazish.	million dollar	**10**	**20**
31.	Hududlarda **100 ta** yangi mehmonxona, mehmon uylari va xostellar tashkil etish.	ta	**15**	**25**

T/r	Maqsadli ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	2023	2024
59-maqsad: Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish				
32.	Savdo, maishiy, sayilgoh va ko‘ngilochar xizmatlarini rivojlantirish uchun shaharsozlik loyihalari asosida zaruriy infratuzilmasi mavjud va aholi gavjum bo‘lgan ko‘chalarning **500 ta** bo‘sh yer maydonlarini auksion savdolariga chiqarish.	ta	**50**	**85**
33.	O‘rta va yirik shahar markazlarida xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan markaziy ko‘chalarni tashkil etish orqali **800 ta** savdo va servis ob’ektlarni tashkil etish.	ta	**44**	**62**
34.	Xalqaro avtomobil yo‘llari bo‘yida **147 ta** savdo va servis ob’ektlarni tashkil etish.	ta	**44**	**44**
60-maqsad. Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta’minlash darajasini oshirish				
35.	Qurilish hajmini yiliga **3,4 trln.so‘mga** yetkazish.	mlrd so‘m	**2 542**	**2 635**
36.	“Ochiq budjet”ga ajratiladigan mablag‘larni **3 barobar** oshirish.	mlrd so‘m	**21**	**25**
III. SUV RESURSLARINI TEJASH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH				
3.1. Suv resurslarini tejash bo‘yicha islohotlar				
62-maqsad: Respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish				
37.	Suv ishlatish samaradorligini **21 foizga** oshirish.	Foiz	**18**	**21**
3.2. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha islohotlar				
66-maqsad: Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta’sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish				
38.	**1 ta** hududda ekologik toza hudud rejimini joriy qilish.	ta	**-**	**-**
67-maqsad: Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish				
39.	“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yili kamida **0,6 million tup** manzarali va mevali daraxt hamda butalar ko‘chatlarini, qalamchalarini ekish.	million tup	**0,4**	**0,7**
40.	Yashillik darajasini **30 foizga** yetkazish.	foiz	**8,6**	**8,7**
41.	**5 ta** yashil bog‘lar barpo etish.	ta	**-**	**1**